O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 1:159.923.2:37.01

***Islombek E. KARSHIYEV,***
*PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O‘zbekiston*
*E-mail: islombekkarshiyev@jdpu.uz, ORCID: 0009-0008-9818-451X*

*Falsafa fanlari doktori, professor A.Saidkasimov taqrizi asosida*

# INSON BORLIG‘INING EKSTRAVERT VA INTROVERT XUSUSIYATLARI K. G. YUNG TALQINIDA: FALSAFIY-PEDAGOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada inson borlig‘ining asosini tashkil etuvchi ruhiyat va ong, bilish imkoniyatlari funksiyalari, psixologik tiplar Karl Yung ta’limoti asosida tahlil qilingan. Har qanday odam o‘zining fikrlash, sezish, idrok qilish va intuitsiya qobiliyatiga ko‘ra ekstravert va introvert tipdan biriga mansub. Hech qaysi tip yaxshi yoki yomon, kuchli yoki zaif emas, bu tasnif odamning o‘ziga va dunyoga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** inson borlig‘i, ong, ruhiyat, tafakkur, sezgi, idrok, intuitsiya, ekstraversiya, introversiya.

# ЭКСТРАВЕРТНЫЕ И ИНТРОВЕРТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО БЫТИЯ В ТРАКТОВКЕ К. Г. ЮНГА: ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье на основе учения Карла Юнга проанализированы психика и сознание как основа бытия человека, функции познавательных способностей и психологические типы. Каждый человек, в зависимости от способности к мышлению, ощущению, восприятию и интуиции, относится к одному из двух типов: экстравертному или интровертному. Ни один из типов не является ни хорошим, ни плохим, ни сильным, ни слабым: данная классификация определяет отношение человека к самому себе и к миру.

**Ключевые слова:** Бытие человека, сознание, психика, мышление, ощущение, восприятие, интуиция, экстраверсия, интроверсия.

# EXTRAVERTED AND INTROVERTED CHARACTERISTICS OF HUMAN EXISTENCE IN C. G. JUNG’S INTERPRETATION: A PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL ANALYSIS

Annotation

The article analyzes the psyche and consciousness as the foundation of human existence, the functions of cognitive capacities, and psychological types on the basis of Carl Jung’s theory. According to their capacities for thinking, sensation, perception, and intuition, every person belongs to one of two types: extraverted or introverted. Neither type is good or bad, strong or weak; this classification determines a person’s attitude toward themselves and the world.

**Key words:** Human existence, consciousness, psyche, thinking, sensation, perception, intuition, extraversion, introversion.

Falsafiy-pedagogik tafakkur markazida doimo inson muammosi turadi. Zero, tarix davomida yaratilgan har bir ta’limot, olib borilgan har bir ilmiy izlanish va tadqiqotning oxirgi maqsadi inson hayotini mazmunli qilish, uning mohiyatini chuqur anglashga borib taqaladi. Shu ma’noda inson hayotning gultoji va maqsadlarning maqsadi sifatida talqin etiladi. Insonning o‘z nomiga munosib tarzda umr kechirishi esa hayot haqiqatining muhim talablaridan biri bo‘lib, bu talab ta’lim-tarbiyaning bosh vazifasi, ya’ni shaxsni o‘zini anglash va kamolotga erishish sari yo‘naltirish g‘oyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Inson o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan, o‘z hayoti va faoliyatini mustaqil tashkil etish hamda boshqarish, tashqi olam va o‘zga kishilar bilan muayyan munosabatlarga kirishish qobiliyatiga ega bo‘lgan ongli mavjudotdir. Uning bu uch qirrali tabiati yagona o‘lchov asosida o‘rganishni qiyinlashtiradi. Shu bois pedagogik jarayonda shaxsga yaxlit tizim sifatida yondashish, uning ichki dunyosini ham, ijtimoiy mavqeini ham inobatga olish zarur bo‘ladi.

Inson borlig‘i, xususan ruhiyat nihoyatda murakkab, ko‘p qirrali hodisa va xususiyatlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Aynan shu murakkablik sababli inson borlig‘i ko‘plab fanlarning tadqiqot obyektiga aylangan: falsafa uni mavjudlik va ma’no nuqtai nazaridan, psixologiya ruhiy jarayonlar nuqtai nazaridan, pedagogika esa shakllanish va rivojlanish nuqtai nazaridan tadqiq etadi. Falsafa va psixologiya tutashuvida shakllangan psixoanalitika yo‘nalishi doirasida inson borlig‘ini o‘rganish shved olimi Karl Gustav Yung tadqiqotlari bilan bog‘liq. Olimning ilmiy merosi tibbiyot, psixologiya, tarix, falsafa, madaniyat kabi keng sohalarni qamrab olgan. Biz uning insonning olamni va o‘zini tushunishi, qabul qilishi bilan bog‘liq psixologik tiplar haqidagi ta’limotiga e’tibor qaratamiz.

Yung ilmiy merosining inson borlig‘iga oid qarashlari psixologik tiplar, ya’ni ekstravert va introvert odamlar talqinida o‘z ifodasini topgan. Olim psixologik tiplarni asosiy psixik funksiyalar, ya’ni fikrlash, his qilish, idrok va intuitsiya nisbatlariga qarab ajratgan. Bu yondashuvning falsafiy-pedagogik ahamiyati shundaki, u har bir shaxsning olamni o‘ziga xos tarzda idrok etishini ilmiy asosda tan oladi. Natijada ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning fikrlash uslubi va o‘zlashtirish yo‘llariga mos metod va vositalarni tanlash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish uchun nazariy poydevor yaratiladi.

Yung ta’limotiga ko‘ra, ruhiyatning faoliyati to‘rt asosiy funksiya orqali namoyon bo‘ladi. Bu funksiyalarning mohiyati quyidagicha izohlanadi:

tafakkur – obrazli tasavvurlarni tushunchalar vositasida mantiqiy qonuniyatlarga tayangan holda mazmunan anglash va asoslash layoqati;

his qilish (hissiy baholash) – narsa va hodisalarning qadriyat ahamiyatini belgilash, ularni qabul qilish yoki rad etish jarayoni. Uning natijasi baho shaklida ifodalanadi: yaxshi yoki yomon, go‘zal yoki xunuk;

idrok (sezgi) – tashqi olamni sezgi a’zolari orqali bevosita qabul qilish;


intuitsiya – subyekt tomonidan ongli mulohaza va sezgi vositachiligisiz, bevosita anglab yetish. Bunday anglashning mazmuni cheklanmagan bo‘lib, u tashqi obyektlarni ham, ichki ruhiy holatlarni ham qamrab oladi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bu to‘rtlik inson bilishining ratsional, emotsional, sensor va intuitiv bosqichlarini yagona tizimda birlashtiradi. YA’ni bilish faqat aqliy faoliyat bilan cheklanmaydi, balki qadriyatiy munosabat va bevosita sezgini ham o‘z ichiga oladi. Bu fikr oldingi qismda ta’kidlangan inson borlig‘ining ko‘p qirraliligi haqidagi qarashni ruhiyat darajasida konkretlashtiradi.

Funksiyalardan birining boshqalariga nisbatan yetakchilik qilishiga qarab Yung shaxslarni to‘rt tipga ajratadi: tafakkur, his-tuyg‘u, sezgi va intuitsiyaga yo‘nalgan tiplar. Shaxsning tashqi dunyoga munosabat yo‘nalishi (obyektga yoki subyektga qaratilganligi) bu tasnifni yanada murakkablashtiradi. Har bir tip ekstravert yoki introvert shaklda kechishi mumkin, shu tariqa sakkiz xil psixologik tip hosil bo‘ladi. Bular: tafakkurli ekstravert va introvert, hissiyotli ekstravert va introvert, sezgiga yo‘nalgan ekstravert va introvert hamda intuitiv ekstravert va introvert tiplardir.

Ruhiy hayotni to‘liqroq yoritish uchun Yung yetakchi funksiya bilan bir qatorda yordamchi funksiyalarni ham ajratadi. Shuningdek, funksiyalarni aqlga munosabatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘ladi: tafakkur va his qilish ratsional, sezgi va intuitsiya esa irratsional funksiyalar hisoblanadi. Yetakchi funksiyaning kuchayishi unga qarama-qarshi funksiyaning ma’lum darajada bostirilishiga olib keladi. Bu esa shaxs ruhiyatidagi ichki ziddiyat va muvozanat masalasini ochib beradi.

Shu bilan birga, hech bir insonda faqat bitta funksiya mutlaq hukmronlik qilmasligini ta’kidlash zarur. Har doim ikkinchi darajali va ko‘makchi funksiyalar ham faol bo‘ladi. Masalan, mantiqiy tafakkuri yetakchi bo‘lgan shaxsda vaqt o‘tishi bilan intellektual intuitsiya ham yuzaga chiqishi mumkin, teskari holat ham kuzatiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:




Yuqorida ko‘rib chiqilgan ruhiy funksiyalar ekstravert va introvert tiplarni farqlovchi asosiy mezon ekanini inobatga olib, endi bu tiplarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz. Ushbu ikki tip bir-biriga shu qadar zidki, maxsus bilimga ega bo‘lmagan kishi ham farqni payqay oladi: kundalik hayotda kamgap, odamovi va uyatchan insonlar bilan bir qatorda sertakalluf, so‘zamol va shinavanda insonlar doimiy uchrab turadi. Ko‘pchilik bu holatni individual xususiyat bilan izohlaydi. Biroq inson tabiatining asoslarini bilgan tadqiqotchi bu holat individual emas, kengroq qamrovga ega ekanini aniqlay oladi. K. G. Yung introversiya va ekstraversiyaning har biri fundamental asosga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu tiplar nafaqat ilmiy salohiyatli kishilar orasida, balki oddiy odamlar o‘rtasida ham kuzatiladi, bunda jins hech qanday rol o‘ynamaydi. Shu bilan birga Yung tiplar qarama-qarshiligini biologik asosga ega ziddiyat deb hisoblaydi. Biologik asos deganda, birinchi navbatda, tirik mavjudotning tashqi olamga moslashuvi (adaptatsiya) tushuniladi, chunki sub’ekt va ob’ekt o‘rtasidagi har qanday munosabat o‘zaro ta’sir orqali ikkalasining ham o‘zgarishiga olib keladi.

Tabiatda tirik organizmning uzluksiz mavjudligini ta’minlovchi ikki usul mavjud. Faylasuf olima F. Abidjanova buni shunday izohlaydi: “…Ularning biri – nisbatan kam himoyalanganligi bilan yuksak unumdorlikka ega, shu tufayli har bir mavjudotning hayotiy davomiyligining alohidaligini ta’minlaydi, ikkinchisi esa, unumdorlik jihatidan sust bo‘lsa-da, uning o‘z-o‘zini himoyalash uchun turli xil usullar bilan qurollanishi bilan bog‘liq”. Yung tabiatdagi tirik jonzotlarning yashovchanligini ikki xil ruhiy moslashuvchanlik tipiga o‘xshatadi. Insonlararo munosabatlar va muhitga moslashuv ham tabiatga monand xususiyatga ega: ekstravert o‘zini hamma yerda “isrof” qilayotgan bir paytda, introvert tashqi talablardan qochib, quvvatini ob’ektdan yashirib tejash evaziga shaxsiy holatini mustahkamlaydi. Biologik mavjudlikning bu ikki moslashuvi turli yo‘llardan borsa-da, rivojlanishga olib keladi: biri munosabatlarning serqirraligi, ya’ni imkoniyatlarini namoyon etish orqali, ikkinchisi ularni jamlash hisobiga maqsadga erishadi. Biri hayotiy tajribaga tayanib, muayyan holatda boshqa yo‘l yo‘qligini tan oladi va sharoitga bo‘ysunadi; ikkinchisi esa hodisa ming marta bir xil oqibatga olib kelganini bilsa-da, ming birinchi safar boshqacha bo‘lishiga ishonib, o‘z yo‘lidan qaytmaydi. Aniqroq aytganda, ekstravert tashqi olamdan kelayotgan holatlarga qarab ish tutadi, introvert esa ichki dunyosiga, qalbiga yuzlanib, o‘zi va tashqi olam o‘rtasiga chegara qo‘yadi.

Yuqorida bayon etilgan moslashuv usullari asosida ekstravert tipning o‘ziga xosligi quyidagicha namoyon bo‘ladi. Agar shaxsning fikri, hissiyoti, faoliyati va butun hayot kechirishi bevosita ob’ektiv shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa, bunday shaxs ekstravert hisoblanadi. Ekstravert narsa-hodisalarni shaxsiy pozitsiyasidan emas, balki jamiyat nuqtai nazaridan baholaydi va tanlaydi. Albatta, unda sub’ektiv qarashlar ham mavjud, biroq ular

tashqi talablarga nisbatan sezilarli darajada zaif bo‘ladi. Shu sababli ekstravert o‘zining botiniy o‘zligi bilan yuzma-yuz kelmaydi, uning e’tibori asosan tashqi olamga qaratilgan bo‘ladi.

Ekstravertdan farqli o‘laroq, introvert tipda ustuvorlik ob’ektiv sharoitga emas, sub’ektiv omilga, ya’ni shaxsning ichki dunyosiga beriladi. Introvert voqelikni baholashda tashqi talablarga o‘z-o‘zidan bo‘ysunmaydi: u avval hodisani o‘z ichki tajribasi, qarashlari va qadriyatlari orqali o‘tkazadi, shundan so‘ng munosabat bildiradi. Tashqi olam bilan aloqa unda mavjud bo‘lsa-da, shaxs va ob’ekt o‘rtasida o‘ziga xos ruhiy masofa saqlanadi. Bu masofa introvertga o‘z mustaqilligini va ichki barqarorligini saqlash imkonini beradi, biroq ayni paytda uni tashqi muhitda kamroq faol va ko‘proq o‘ychan qilib ko‘rsatadi. Demak, ekstraversiya va introversiya shaxsning tashqi olam bilan munosabat yo‘nalishi bo‘yicha farqlanuvchi, bir-birini to‘ldiruvchi ikki moslashuv strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekstravertning ob’ektiv shart-sharoitlarga bunday bog‘liqligi uning ijtimoiy-axloqiy yo‘nalishini ham belgilaydi. Ekstravert faoliyatining qonun-qoidalari jamiyatdagi muayyan talablarga va umume’tirof etilgan qarashlarga mos keladi, shu bois jamiyat dunyoqarashi va me’yorlari o‘zgarganda, ekstravert ham o‘z yo‘nalishini shunga moslab o‘zgartiradi. Biroq ob’ektiv shart-sharoitlarga butunlay “g‘arq” bo‘lgan ekstravert zamon va sharoit o‘zgarganda, vaziyatga moslashishga ulgirmay qolishi mumkin. Natijada zamon va jamiyat uni chetga suradi, chunki u ob’ekt bilan shu darajada aynanlashib, uyg‘unlashib ketgan bo‘ladiki, ob’ekt uning uchun deyarli mutlaq haqiqatga aylanadi va u ob’ektning “quli” bo‘lib qoladi. Masalan, sobiq sovet davri mafkurasi va siyosatini qo‘llab-quvvatlab, uning tashqi ob’ektiv holatlariga to‘liq moslashgan, kommunizm va sotsializm g‘oyalarini mutloq haqiqat deb bilib yashagan, boshqacha yashash mumkinligini tasavvur ham qilmagan kishini ob’ekt bilan aynanlashgan ekstravert deb hisoblash mumkin. Bunday kishilar keyingi o‘zgarishlarni qabul qilishga ulgirmaydi va uzoq yillar davomida o‘tmishni qo‘msashga moyil bo‘lib qoladi.

Ekstravertning faoliyat yo‘nalishini tanlashida ham xuddi shu qonuniyat namoyon bo‘ladi. U makon va zamon eng yaxshi imkoniyat yaratgan mashg‘ulotni tanlaydi yoki jamiyat talabiga javob beradigan, jamiyat kutgan yangilikni taklif etadi, jamiyatga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni esa istisno qiladi. Ekstravert ko‘proq o‘zining emas, boshqalarning fikri bilan hisoblashadi. Bu uning ijtimoiy muvaffaqiyati uchun qulay bo‘lsa-da, shaxsning o‘z “Men”ini nazarga olmasligi oqibatida rad etilgan “Men” anglanmaganlik doirasiga o‘tib qoladi (Z. Freyd talqinida ongsizlikka siqib chiqariladi). Shuning uchun ekstravert ruhida odamlar nazdida har tomonlama barkamol bo‘lishga kuchli intilish paydo bo‘ladi: u har qanday yo‘l bilan jamiyat hurmatini qozonishga harakat qiladi va o‘z obro‘siga putur yetkazuvchi har qanday xatti-harakatdan qochadi.

Ekstravertdan farqli o‘laroq, introvert ob’ektiv emas, sub’ektiv omillarga tayanadi. Uning nazarida ob’ekt zarur darajada e’tiborga loyiq emas. Shunga qaramay, ob’ekt shunday hodisaki, uning ta’siridan butunlay chetlashish mushkul: inson undan qanchalik qochib, erkinlik sari intilmasin, ob’ekt o‘zining kuchli ta’siri bilan individ ongiga kirib borishga urinadi.

Introvert odamlarga yoqishga, ularning ko‘nglini olishga urinmaydi, shu bois jamiyatda ko‘pincha xudbin va mag‘rur shaxs taassurotini qoldiradi. Biroq unga yaqinlashib, ichki dunyosini tanib borgan sari munosabat o‘zgaradi: introvert shaxsini yaqindan bilganlar uni yuqori baholaydi.

Bu holatni pedagogik faoliyat misolida ko‘rish mumkin. Falsafa o‘qituvchisi o‘z fanini chuqur bilishi, uning ichki mohiyatini butun vujudi va hayot-faoliyati bilan his etib yashashi mumkin. Biroq oliy ta’limdagi zamonaviy rasmiy talablar uning ichki erkinligini namoyon qilishiga to‘sqinlik qilishi ehtimoli bor. Faraz qilaylik, “Borliq va rivojlanish” fanidan dars beruvchi o‘qituvchi “Tabiat borlig‘i” mavzusini talabalarga yaxshi tushunarli bo‘lishi uchun Botanika bog‘ida, tabiat qo‘ynida erkin ruhda o‘tdi, ammo tashqi rasmiy talablarga e’tibor bermadi, ya’ni mashg‘ulot uchun fakultet dekanidan rasmiy ruxsat olmadi. Tabiat qo‘ynida o‘tgan ma’ruza talabalar umr bo‘yi eslab qoladigan darajada mazmunli bo‘ldi va o‘qituvchining asosiy maqsadi ham shu edi. Shunga qaramay, ertasi kuni dekanat uni hayfsan bilan jazoladi. Bu vaziyatda bir tomonda o‘qituvchining introvert yo‘nalishi, ikkinchi tomonda tizimning rasmiy talablarga ekstravert tarzda bog‘langanligi o‘z me’yoridan oshib ketganini ko‘ramiz. Oqibatda mehnati va ezgu niyatiga qaramay o‘qituvchining harakati qadrsizlantirildi va dekanat (shu bilan birga ta’lim tizimi) yana bir bor uning ixlosini qaytardi. Demak, ekstravert shaxs tashqi olam bilan band bo‘lsa, introvert shaxs haddan tashqari o‘zining botiniy olamiga e’tibor qaratadi.

Umuman olganda, Yung ta’limotida shaxs jamiyatdan tashqarida yashay olmasligi, uning ruhiy sog‘lomligi va xotirjamligi oila hamda davlat mustahkamligi va ravnaqining asosi ekani ta’kidlanadi. Jamiyat shaxsni kamol toptiruvchi makondir. Har bir inson hayotiy impulslarini ijtimoiy me’yorlarga qarama-qarshi qo‘ymasligi, aksincha, ularga moslashib, o‘z ruhiyatini kamol toptirish imkoniyatini topishi lozim. Bunda ruhiy va ma’naviy yetuklik muhim o‘rin tutadi, zero ma’naviy-ruhiy barkamollik “insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi”. Yuqorida ko‘rsatilganidek, inson borlig‘ining asosini ruh va tana, ya’ni ma’naviylik va moddiylik tashkil etadi. Yung ijodida borlikning abadiylikka daxldor qismi, ya’ni ruh va ruhiyat asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Uning psixologik tiplar haqidagi ta’limoti keyinchalik britaniyalik psixolog Hans Aysenk tomonidan chuqur o‘rganilib rivojlantirildi va bugungi kunda ham inson ruhiyatini o‘rganishda, ruhiy kasalliklarni aniqlash va davolashda keng qo‘llanilmoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki, introversiya va ekstraversiya hozirda inson ruhiyatini tavsiflovchi dunyodagi eng ko‘p qo‘llaniladigan beshta ta’limotdan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, K. G. Yung talqinida ekstraversiya va introversiya shaxsning tashqi olam bilan munosabat yo‘nalishini belgilovchi, biologik asosga ega ikki fundamental moslashuv strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ekstravert ob’ektiv shart-sharoit va jamiyat talablariga tayanadi, shu bois ijtimoiy moslashuvchanligi yuqori bo‘lsa-da, ob’ekt bilan haddan tashqari aynanlashganda o‘zgaruvchan sharoitga ulgurmay qolish xavfi mavjud. Introvert esa sub’ektiv omilga, ichki dunyosiga tayanadi, o‘z mustaqilligini saqlaydi, biroq tashqi muhit bilan aloqada qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Har ikki tip bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi va ularning me’yoridan oshishi shaxs hamda jamiyat o‘rtasida ziddiyat keltirib chiqaradi. Pedagogik nuqtai nazardan bu tiplarni inobatga olish o‘qituvchi va talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishga, ta’lim jarayonida ichki erkinlik bilan rasmiy talablar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga imkon beradi. Bu esa ma’naviy va intellektual jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalashda falsafa o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**


1. Yung K.G. Psixologicheskiye tipi. – Moskva: AST, Universitetskaya kniga, 1998. – S. 402.
2. Yung K.G. Psixologicheskiye tipi. – Moskva: AST, Universitetskaya kniga, 1998. – S. 33.
3. Abidjanova F., Sherova D., Shodimetova G. Hozirgi zamonda inson ongi va qalbi uchun kurashning estetikada namoyon bo‘lishi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘FMJ, 2011. – B. 18.
4. Yung K.G. Psixologicheskiye tipi. – Moskva: AST, Universitetskaya kniga, 1998. – S. 406.
5. Yung K.G. Psixologicheskiye tipi. – Moskva: AST, Universitetskaya kniga, 1998. – S. 455.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 19.